

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

4-MAXSUS SON

*Ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026
sentyabr-oktabr

Belarus–O'zbekiston

ilmiy-texnik hamkorligi: zamonaviy muhandislik
ta'limi, amaliy kvalifikatsiyalar va innovatsion
sanoat rivoji



ISSN: 3060-463X

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr/oktabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modelashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI: O'ZARO BOG'LIQLIK NAZARIYASI	9
---	---

Abidova Shahnoza Abduvaliyevna



AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI: O'ZARO BOG'LIQLIK NAZARIYASI

Abidova Shahnoza Abduvaliyevna

“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası assistenti

E-mail: abidovashahnoza1987@gmail.com

ORCID: 0009-0002-2095-6723

Annotatsiya. Mazkur tezisda aholi daromadlari va turmush darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy asoslari yoritilgan. Daromadlarning iste'mol, jamg'arma, real xarid qobiliyati va iqtisodiy farovonlikka ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, turmush darajasini baholashda faqat daromad miqdori bilan cheklanmasdan, narxlar darajasi, iste'mol tarkibi, ijtimoiy transfertlar, uy xo'jaliklarining jamg'armalari va iqtisodiy imkoniyatlarini ham hisobga olish zarurligi asoslangan. Tadqiqotda turli iqtisodiy nazariy yondashuvlar umumlashtirilib, aholi farovonligini baholashning kompleks xususiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: aholi daromadlari, turmush darajasi, real daromad, iste'mol, jamg'arma, xarid qobiliyati, ijtimoiy transfertlar, iqtisodiy farovonlik.

Abstract. This thesis examines the theoretical foundations of the relationship between household income and living standards. It analyzes the impact of income on consumption, savings, real purchasing power, and economic well-being. The study substantiates the need to consider not only the level of income, but also price levels, consumption structure, social transfers, household savings, and economic opportunities when assessing living standards. Various theoretical approaches are summarized, and the multidimensional nature of evaluating population well-being is highlighted.

Keywords: household income, living standards, real income, consumption, savings, purchasing power, social transfers, economic well-being.

Аннотация. В данном тезисе рассматриваются теоретические основы взаимосвязи между доходами населения и уровнем жизни. Проанализировано влияние доходов на потребление, сбережения, реальную покупательную способность и экономическое благосостояние. Обоснована необходимость учитывать при оценке уровня жизни не только величину доходов, но и уровень цен, структуру потребления, социальные трансферты, сбережения домохозяйств и их экономические возможности. В исследовании обобщены различные теоретические подходы и раскрыт комплексный характер оценки благосостояния населения.

Ключевые слова: доходы населения, уровень жизни, реальные доходы, потребление, сбережения, покупательная способность, социальные трансферты, экономическое благосостояние.

KIRISH

Aholi daromadlari va turmush darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiyot nazariyasining eng murakkab va ko'p qirrali masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur bog'liqlikni faqatgina “daromad ko'paysa turmush darajasi oshadi” degan oddiy tushuncha orqali ifodalash fikrimizcha uncha yetarli emas. Chunki nominal daromadning o'sishi inflyatsiya, aholi iste'mol tarkibi, uy xo'jaligi a'zolari soni, majburiy xarajatlar, soliqlar, ijtimoiy transfertlar, jamg'armalar, qarz yuki, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar, hududiy narxlar tafovuti hamda daromadlar taqsimotidagi tengsizlik ta'sirida turmush darajasiga turlicha ta'sir etishi amaliyotda yaqqol namoyon bo'ladi.

“Aholi turmush darajasi” iqtisodiy kategoriyasi aholining moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati, iste'mol hajmi va tarkibi, uy-joy sharoitlari, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, mehnat va dam olish sharoiti hamda iqtisodiy xavfsizlik holatini ifodalaydi. Daromad esa ushbu imkoniyatlarni amalga oshirishning muhim resurs bazasi hisoblanadi. Lekin daromad turmush darajasining yagona mezonini emas. Chunki aholi daromadlari turmush darajasini shakllantiruvchi bazaviy iqtisodiy resurs bo'lsa, ushbu resursning real farovonlikka aylanishiga narxlar darajasi, davlat siyosati, ijtimoiy infratuzilma, uy xo'jaligi ehtiyojlari va institutsional muhit ham ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyot fani tarixida aynan daromad va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy jihatlarini o'rganishda E. Engelning ilmiy tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Uning kuzatishlariga ko'ra, uy xo'jaligi daromadi ortgan sari oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlarning mutlaq miqdori ko'payishi mumkin, biroq umumiy iste'mol xarajatlardagi ulushi esa qisqaradi.¹ Mazkur qonuniyat aholi turmush darajasini baholashda faqatgina daromad miqdorini

1 Engel E. Die Productions- und Consumtionsverhältnisse des Königreichs Sachsen // Zeitschrift des statistischen Bureaus des Königlich

emas, balki iste'mol xarajatlarning tarkibiy o'zgarishini ham hisobga olish lozimligidan dalolat beradi.

Daromadi nisbatan past bo'lgan uy xo'jaliklarida oziq-ovqat va boshqa birinchi zaruriyat tovarlariga sarflar yuqori ulushni egallaydi, daromad o'sishi bilan esa ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, transport, uy-joy va jamg'arishga ajratiladigan mablag'lar ko'payib boradi. Mazkur iqtisodiy qonuniyat iste'mol tarkibining diversifikatsiyasi daromad o'sishining aholi turmush darajasiga ta'sirini ifodalovchi muhim mezon hisoblanadi.

Iqtisodiyot fani rivojida makroiqtisodiy nazariyaning shakllanishiga katta hissa qo'shgan iqtisodchi J. M. Keyns aholi daromadlari va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni makroiqtisodiy nuqtayi nazardan tizimlashtirdi. Uning "asosiy psixologik qonuni" tamoyiliga ko'ra, daromad oshganda iste'mol ham ortadi, biroq iste'molning o'sish sur'ati odatda daromadning o'sish sur'atidan past bo'ladi.² Mazkur nazariyaning ushbu tadqiqot uchun metodologik ahamiyati shundaki, daromadning aholi turmush darajasiga ta'siri iste'mol va jamg'arish bo'yicha qarorlar orqali namoyon bo'ladi. Hayotiy sikl gipotezasiga ko'ra, insonlar iste'mol va jamg'arish hajmini hayoti davomida olinishi kutilayotgan daromad va mavjud boylikdan kelib chiqib rejalashtiradilar.³ Mehnat faoliyatining boshlang'ich bosqichida esa daromad past bo'lishi va qarz olish ehtiyoji yuqori bo'lishi mumkin. Mazkur nazariy yondashuv aholi turmush darajasini baholashda uy xo'jaliklarining yosh tarkibi, topayotgan daromadlari, jamg'armalari va qarz majburiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan J. Stiglits, A. Sen va J. P. Fitussi boshchiligidagi komissiya iqtisodiy farovonlikni baholashda YaIM va o'rtacha daromadlar bilan cheklanmasligi, balki uy xo'jaliklarining real daromadlari va ularning iste'moli, boylik, taqsimot, sog'liq, ta'lim, shaxsiy faoliyat, xavfsizlik hamda atrof-muhit kabi ko'p o'lchamli ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish zarurligini asoslaydilar.⁴ A. Diton o'z tadqiqotlarida aholi farovonligini o'lchashda uy xo'jaliklari darajasidagi iste'mol va xarajatlarni manbalariga katta e'tibor qaratadi. U daromad ko'pincha o'zgaruvchan va o'lchashda esa qator xatoliklarga moyil bo'lishi, iste'mol esa ayrim sharoitlarda uy xo'jaligining uzoq muddatli iqtisodiy imkoniyatlarini nisbatan yaxshiroq aks ettirishini ko'rsatib beradi.⁵

MDH iqtisodchi olimlaridan Ye. V. Odinsona aholi turmush darajasining "barqarorligi"ni baholashga bag'ishlangan tadqiqotida uchta muhim mezonni, ya'ni aholi jon boshiga pul daromadlarining xarid qobiliyati, uy-joy sharoitlari va jamg'armasining mavjudligini birlashtirgan ko'p mezonli yondashuvni taklif etadi.⁶ Mazkur metodologik yondashuv aholi daromadlarining turmush darajasiga ta'siri faqatgina joriy iste'molni qoplash bilan cheklanmasligini, balki uy xo'jaligining iqtisodiy buhronlarga bo'lgan chidamliligi va kelgusi davrdagi farovonlik darajasini ham belgilashini ko'rsatadi. Shu sababli, tadqiqotimizda daromadning turmush darajasiga ta'sirini "joriy farovonlik" va "barqaror farovonlik" ko'rinishida ikki darajada baholash metodologik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan M. Muxitdinova aholi real daromadlari va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik, iste'mol tovarlari narxi o'sishiga muvofiq daromadlarni indeksatsiya qilish, iste'mol va jamg'armalar dinamikasini aholi kutilmalari bilan bog'lab baholash hamda ijtimoiy transfertlarning manzilliligini oshirish masalalarini nazariy-uslubiy jihatdan asoslagan.⁷ Yondashuvning mazkur tadqiqot uchun muhim tomoni real daromad tushunchasini inflyatsiya ta'siri bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lashidir. Daromadlar nominal jihatdan o'ssa-da, iste'mol narxlaridan tezroq o'sgan taqdirda, aholining real xarid qobiliyati kamayadi. U. Vosiqov aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag'allikni qisqartirishda fiskal siyosatdan foydalanishga bag'ishlangan tadqiqotida soliqlar, budjet xarajatlari, ijtimoiy dasturlar va inson kapitaliga investitsiyalar orqali daromadlarni qayta taqsimlash aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishning muhim mexanizmi sifatida asoslangan.⁸ U davlat fiskal siyosatini joriy, qisqa va uzoq muddatli tamoyillar asosida qo'llashni taklif etgan. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, aholi daromadlarining turmush darajasiga ta'sirini ikki bosqichda ko'rib chiqish mumkin. Birlamchi bosqichda mehnat, tadbirkorlik va mulk daromadlari orqali, ikkilamchi bosqichda esa soliqlar, transfertlar va davlat xizmatlari orqali qayta shakllantirilgan iqtisodiy imkoniyatlar orqali amalga oshadi.

O'zbekistonda aholi turmush darajasini statistik baholashga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda daromad, xarajat, iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlaridan kompleks foydalanish taklif etilmoqda. So'nggi yillardagi tadqiqotlarda aholi turmush darajasini baholash uchun joriy daromad, jamg'arma, pullik xizmatlar

Sächsischen Ministeriums des Innern. 1857. Nr. 8-9.

2 Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег / пер. с англ. М.: Бизнеском, 2013. 402 с. Гл. 8-10.

3 Modigliani F., Brumberg R. Utility Analysis and the Consumption Function: An Interpretation of Cross-Section Data. Kurihara K.K. (ed.). Post-Keynesian Economics. New Brunswick: Rutgers University Press, 1954.

4 Стиглиц Дж., Сен А., Фитусси Ж. П. Неверно оценивая нашу жизнь: почему ВВП не имеет смысла? М.: Издательство Института Гайдара, 2015. С. 25-27.

5 Deaton A. Measuring and Understanding Behavior, Welfare, and Poverty. American Economic Review. 2016. Vol. 106. No. 6. P. 1221-1243.

6 Одинцова Е.В. Об устойчивости уровня жизни российских домохозяйств. Уровень жизни населения регионов России. 2026. Т. 22. № 1. С. 87-104.

7 Muxitdinova M.Z. Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishning iqtisodiy mexanizmi: 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi ixtisosligi bo'yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023.

8 Vosiqov U.A. Aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag'allikni qisqartirishda fiskal siyosatdan foydalanish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. 08.00.01 va 08.00.07. Toshkent, 2025.



qiymati, aholining nominal pul daromadlari, ixtiyordagi real daromadlari, tovar va xizmatlar iste'moli hamda jamg'armalar o'sishi kabi ko'rsatkichlar tizimi taklif qilinganligi ko'rish mumkin. Bunday yondashuv turmush darajasini bir ko'rsatkich bilan emas, balki resurslar, iste'mol va zaxiralar tizimi sifatidagi ko'rsatkichlar orqali ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, yuqorida tahlil qilingan ilmiy manbalarga asoslanib, aholi daromadlari va turmush darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka quyidagicha ta'rif berish mumkin. Aholi daromadlari va turmush darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik uy xo'jaliklarining mehnat, tadbirkorlik, mulk va transfertlar orqali shakllangan nominal resurslarining narxlar darajasi, budjetning qayta taqsimoti, iste'mol ehtiyojlari, jamg'arma va boylik, ijtimoiy infratuzilma hamda daromadlar taqsimoti ta'sirida real xarid qobiliyati, iste'mol sifati, iqtisodiy xavfsizlik hamda inson kapitali imkoniyatlariga aylanish jarayonini ifodalovchi ko'p bosqichli iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Engel E. Die vorherrschenden Gewerbszweige in den Gerichtsämtern mit Beziehung auf die Productions- und Consumtionsverhältnisse des Königreichs Sachsen // Zeitschrift des Statistischen Bureaus des Königlich Sächsischen Ministeriums des Innern. – 1857. – Bd. 3. – S. 153–182.
2. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег / пер. с англ. – М. : Бизнеском, 2013. – 402 с.
3. Modigliani F., Brumberg R. Utility Analysis and the Consumption Function: An Interpretation of Cross-Section Data // Post-Keynesian Economics / ed. by K. K. Kurihara. – New Brunswick : Rutgers University Press, 1954. – P. 388–436.
4. Стиглиц Дж., Сен А., Фитусси Ж.-П. Неверно оценивая нашу жизнь: почему ВВП не имеет смысла? : доклад Комиссии по измерению эффективности экономики и социального прогресса / пер. с англ. И. Кушнаревой ; науч. ред. Т. Дробышевской. – М. : Издательство Института Гайдара, 2015. – 216 с.
5. Deaton A. Measuring and Understanding Behavior, Welfare, and Poverty // American Economic Review. – 2016. – Vol. 106, No. 6. – P. 1221–1243. – DOI: 10.1257/aer.106.6.1221.
6. Одинцова Е. В. Об устойчивости уровня жизни российских домохозяйств // Уровень жизни населения регионов России. – 2026. – Т. 22, № 1. – С. 87–104. – DOI: 10.52180/1999-9836_2026_22_1_6_87_104.
7. Muxitdinova M. Z. Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishning iqtisodiy mexanizmi : 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023.
8. Vosiqov U. A. Aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag'allikni qisqartirishda fiskal siyosatdan foydalanish : iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 76 b.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100